



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



UDK: 336.232(575.1)

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.33>

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING SOLIQLI MANBALARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Isoqov Zafarjon Zokirjonovich

НАЛОГООБЛАГАЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ ПОСТУПЛЕНИЙ В МЕСТНЫЙ БЮДЖЕТ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Исаков Зафаржон Зокиржонович

TAXABLE SOURCES OF LOCAL BUDGET REVENUES AND THEIR EFFICIENCY

Isakov Zafarjon Zokirjonovich

Received: January 12, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy budjet daromadlarining asosiy solikli manbalari, ularning iqtisodiy mazmuni hamda hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, solikli daromadlar samaradorligini oshirish masalalari va amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, transfertlar, mahalliy budjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar, daromad bazalari, daromad siyosati, davlat byudjeti, hududlar moliyasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetlararo munosabatlar, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, majburiy to'lovlar, soliq stavkalari, soliq tizimi, soliq siyosati, solikli daromadlar.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ основных налоговых источников поступлений в местные бюджеты, их экономического содержания и роли в обеспечении финансовой стабильности регионов. Также представлены выводы по вопросам повышения эффективности налоговых поступлений и совершенствования существующих механизмов.

Ключевые слова: местный бюджет, трансферы, планирование местного бюджета, местные налоги, налоговая база, налоговая политика, государственный бюджет, региональные финансы, органы местного самоуправления, межбюджетные отношения, юридические лица, физические лица, обязательные платежи, налоговые ставки, налоговая система, налоговая политика, налогооблагаемый доход.

Abstract: This article scientifically analyzes the main tax sources of local budget revenues, their economic content, and their role in ensuring the financial stability of regions. It also presents conclusions on issues of increasing the efficiency of tax revenues and improving existing mechanisms.

Keywords: local budget, transfers, local budget planning, local taxes, revenue bases, revenue policy, state budget, regional finance, local government bodies, inter-budget relations, legal entities, individuals, mandatory payments, tax rates, tax system, tax policy, taxable income.

■ KIRISH

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda fiskal siyosat jarayonlarining chuqurlashuvi mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirdi. 2020-yildan keyingi tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, "Mahalliy budjetlarning barqaror daromad bazasiga egaligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi".

O'zbekiston sharoitida mahalliy budjet daromadlarida soliqlarning ulushi yuqori bo'lib, ularning samaradorligini oshirish davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Shu bois, mahalliy budjet daromadlarining solikli

manbalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish tartibi hamda mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlashda budjetlararo munosabatlarning joriy holatini o'rganishda ilmiy o'rganish, mantiqiylik, tizimli tahlil va ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, qiyoslash kabi usullardan foydalanilgan.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mahalliy budjet solikli daromadlari samaradorligini baholashda



kompleks indikatorlar tizimidan foydalanish taklif etilmoqda. Jumladan, soliqlar tushumining barqarorlik darajasi, prognoz va fakt ko'rsatkichlarining mosligi, solikli daromadlarning mahalliy xarajatlarni qoplash ulushi hamda soliq yig'irlarining ma'muriy xarajatlarga nisbati mezonlaridan keng foydalanilmoqda.

O'zbek olimlaridan O.Kamolov va D.Ibroximovlar "Mahalliy budjetlarning xarajat qismini boshqarish bo'yicha ilmiy ishlar olib borib, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish zarur" -deb ta'kidlaydi[1].

Shuningdek, D. Baxriyev o'z tadqiqotida mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va samaradorligini oshirish istiqbollarini o'rganadi. Uning tadqiqoti hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish va budjet mablag'larini samarali taqsimlash muhimligini ko'rsatadi[2].

A.Abduvoxidov, D.Qodirova va M.Obilov esa, O'zbekistonda mahalliy budjetlarning darom ad bazasini takomillashtirish yo'llarini o'rganib, hududlarni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va mahalliy soliq tushumlarini oshirish bo'yicha amaliy takliflar berganlar[3].

Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi – zamonaviy iqtisodiyotda eng muhim masalalardan biri bo'lib, bu borada turli mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya olimi A.V.Ivanov o'z tadqiqotida Rossiya Federatsiyasida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish muammolarini o'rganadi. Uning fikricha, mahalliy daromad

manbalarining etarlicha diversifikatsiya qilinmaganligi va markaziy budjetdan haddan tashqari bog'liqlik mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Uning takliflariga ko'ra, mahalliy hokimiyatlarga soliq yig'irlari bo'yicha kengroq vakolatlar berilishi zarur [4].

Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy budjet daromadlarining solikli manbalari hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Solikli daromadlar samaradorligini oshirish orqali mahalliy budjetlarning mustaqilligi kuchayadi va hududiy rivojlanish uchun zarur omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda soliq siyosatini ilmiy asosda olib borish muhimdir.

■ MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmi soliq bazasining kengligi, soliq stavkalari va ma'muriyatchilik samaradorligi bilan belgilanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida solikli daromadlar notekis taqsimlangan bo'lib, bu mahalliy budjetlar moliyaviy imkoniyatlarida tafovutlarni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston sharoitida mahalliy budjet daromadlarida soliqlarning ulushi yuqori bo'lib, ularning samaradorligini oshirish davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi. Shu bois, mahalliy budjet daromadlarining solikli manbalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval.

Respublikada 2020-2025-yil yakuni bo'yicha er solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar sonining taqqoslama ko'rsatkichlari[5]

T/r	Yil	Soliq to'lovchi yuridik shaxslar			Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar		
		Soni	O'tgan yilga nisbatan farqi (+;-)	O'sish ko'rsatkichi	Soni	O'tgan yilga nisbatan farqi (+;-)	O'sish ko'rsatkichi
1	2020-y.	172 368	62 820	628,5	5 762 445	142 015	102,5
2	2021-y.	156 411	-15 957	90,7	5 995 896	233 451	104,1
3	2022-y.	170 539	14 128	109,0	6 100 781	104 885	101,7
4	2023-y.	173 497	2 958	101,7	6 423 773	322 992	105,3
5	2024-y.	186 131	12 634	107,3	7 056 476	632 703	109,8
6	2025-y.	196 303	10 172	105,5	7 646 103	589 627	108,3

1-jadvalda Respublikada 2020–2025-yillar yakuni bo'yicha er solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar sonining taqqoslama ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari mahalliy budjet daromadlarining muhim manbai bo'lgan er solig'i bo'yicha soliq bazasining shakllanishi va kengayish jarayonlarini baholash imkonini beradi.

Yuridik shaxslar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar soni 172 368 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 156 411 tagacha kamaygan.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

O'tgan yilga nisbatan 15 957 taga qisqarish va o'sish ko'rsatkichining 90,7 foizni tashkil etishi yuridik shaxslar faoliyatiga tashqi iqtisodiy omillar, xususan pandemiya sharoitida biznes faolligining pasayishi sezilarli ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

2022-yildan boshlab yuridik shaxslar sonida ijobiy tiklanish jarayoni kuzatildi. Xususan, 2022-yilda ularning soni 170 539 taga etib, o'tgan yilga nisbatan 14 128 taga oshdi va o'sish sur'ati 109,0 foizni tashkil etdi. Bu holat iqtisodiy faollikning tiklanishi hamda soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarining takomillashgani

Qarshi davlat texnika universiteti



bilan izohlanadi.

2023–2025-yillarda yuridik shaxslar soni barqaror o'sish bosqichiga o'tdi. 2023-yilda o'sish nisbatan sekinlashgan bo'lsa-da (101,7 foiz), 2024–2025-yillarda mos ravishda 107,3 va 105,5 foizlik o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi. Natijada 2025-yilga kelib er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar soni 196 303 taga etdi. Ushbu jarayon yuridik shaxslarning er resurslaridan foydalanish ko'lamini kengayganini va soliq bazasining mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslar kesimida er solig'i to'lovchilar soni tahlil qilinayotgan davrda uzluksiz o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2020-yilda ularning soni 5 762 445 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 233 451 nafarga ko'payib, 5 995 896 nafarga etdi. O'sish ko'rsatkichi 104,1 foizni tashkil etib, er solig'i bo'yicha soliq bazasi jismoniy shaxslar hisobidan kengayayotganini ko'rsatadi.

2022-yilda o'sish sur'ati nisbatan sekinlashib, 101,7 foizni tashkil etdi. Biroq 2023-yildan boshlab jismoniy shaxslar sonining o'sishi sezilarli darajada tezlashdi. Xususan, 2023-yilda 322 992 nafarga, 2024-yilda esa 632 703 nafarga oshib, o'sish ko'rsatkichi 109,8 foizga etdi. 2025-yilda ham yuqori o'sish sur'ati saqlanib qolib, jismoniy shaxslar soni 7 646 103 nafarga etdi.

Mazkur holat aholi er uchastkalarining hisobga olinishi darajasi oshgani, soliq ma'lumotlar bazalarining raqamlashtirilgani hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining kuchaygani bilan izohlash mumkin.

2020–2025-yillar davomida er solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar sonining umumiy o'sishi mahalliy budjetlar daromad bazasining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Yuridik shaxslar sonining 2021-yilda qisqarishi iqtisodiy beqarorlik sharoitida biznes subyektlari faoliyatining vaqtincha susayganini ko'rsatsa-da, keyingi yillarda barqaror tiklanish jarayoni yuz bergan.

Jismoniy shaxslar kesimida er solig'i to'lovchilar sonining uzluksiz o'sishi soliq ma'muriyatchiligining qamrov darajasi oshganini va er resurslaridan foydalanish ustidan nazorat kuchayganini anglatadi.

Yer solig'i bo'yicha soliq bazasining kengayishi mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirib, hududiy infratuzilma va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy budjet daromadlarining solikli manbalari va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi xulosa va takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- soliq bazasini kengaytirish maqsadida er solig'i va mol-mulk soliqlarini optimallashtirish, yangi majburiy yig'imlar joriy qilish orqali mahalliy budjet daromadlarini barqarorlashtirish;

- hududiy iqtisodiy salohiyatni hisobga olgan holda soliq stavkalarini differensiallashtirish maqsadida soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish va monitoring

jarayonlarini raqamlashtirish;

- elektron hisobot va avtomatlashtirilgan soliq yig'ish tizimlarini keng joriy qilish maqsadida barqarorlikni ta'minlash va prognozlash mahalliy budjet daromadlarini prognozlash tizimini joriy etish;

- soliq tushumlarining o'sish sur'atini va barqarorligini yilma-yil tahlil qilib, hududiy strategiyalarni shakllantirish maqsadida rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar soliq to'lovchilarga rag'batlantiruvchi imtiyozlar va chegirmalar orqali faol soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida soliq mas'uliyatini oshirish bo'yicha ijtimoiy kampaniyalar tashkil etish maqsadida hududiy fiskal barqarorlikni mustahkamlash soliq tushumlarini hududlar kesimida balanslashtirish, kam daromadli hududlarni qo'shimcha moliyaviy yordam bilan ta'minlash;

Umuman olganda, mahalliy budjet daromadlarining solikli manbalari, xususan er solig'i va ko'chmas mulk soliqlari, hududiy moliyaviy mustaqillikni ta'minlashda markaziy ahamiyatga ega. Samaradorlikni oshirish, soliq bazasini kengaytirish va raqamlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish orqali mahalliy budjet daromadlari barqarorligini mustahkamlash mumkin. Bu esa hududiy rivojlanish, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Isoqov Zafarjon Zokirjonovich Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Turizm va Tarjima kafedrasida dotsenti v.v.b, PhD / Исаков Зафаржон Зокиржонович Исхокхон Ибрат Наманганский государственный институт иностранных языков, доцент, PhD / Isakov Zafarjon Zokirjonovich Is'hoqkhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages, Associate Professor, Department of Tourism and Translation, PhD

zafarjon.isoqov.84@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0008-5767-4221>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kamolov, O. S., & Ibroximov D. (2022). Mahalliy budjetlarning xarajatlarini boshqarishdagi mavjud muammolar, ularni hal etish imkoniyatlari. Cyberleninka.

2. Baxriyev, D. R. (2022). Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va samaradorligini oshirish istiqbollari. Cyberleninka.

3. Abduvoxidov A., Qodirova D., & Obilov, M. (2023). O'zbekistonda mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini takomillashtirish yo'llari. E-ITT.

4. Ivanov, A. V. (2019). Rossiya Federatsiyasida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash masalalari. Moskva: Moliya va Kredit jurnali.

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining imv.uz sayiti ma'lumotlari.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz